Materiallar to'plami · Conference Proceedings
"ZAMONAVIY TADQIQOTLAR VA BARQAROR RIVOJLANISH" respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi
04 August 2026
UDK 39
IJTIMOIY-GUMANITAR FANLAR

RISHTON KULOLCHILIK MARKAZI TARIXINING ETNOGRAFIK VA TAVSIFIY MANBALARDA YORITILISHI (XIX asr oxiri – XXI asr boshlari)

Muslima Ma'murovna Yuldasheva*
Farg'ona davlat universiteti Jahon tarixi kafedrasi tayanch doktoranti
✉ m.yuldasheva1187@gmail.com

ANNOTATSIYA

Maqolada Rishton kulolchilik markazi tarixining XIX asr oxiridan XXI asr boshlarigacha bo'lgan davri etnografik va tavsifiy manbalar asosida tahlil qilingan. Tadqiqotda rus sayyohlari kuzatuvlari, sovet davri ekspeditsiyalari va zamonaviy og'zaki tarixiy ma'lumotlar tizimlashtirilib, markazning texnologik va badiiy taraqqiyoti, o'rganilish darajasi hamda manbalarning ilmiy ahamiyati qiyosiy yoritilgan.

Kalit so'zlar

Rishton kulolchiligi, tarixshunoslik, manbashunoslik, etnografik manbalar, og'zaki tarix, kulolchilik texnologiyasi, Farg'ona vodiysi, usta-shogird an'analari, ishqorli sir, milliy hunarmandchilik.

DOI: 10.5281/zenodo.21743497

Kirish

Farg'ona vodiysining eng yetakchi hunarmandchilik o'choqlaridan biri bo'lgan Rishton kulolchilik markazi ko'p asrlik sulolaviy an'analari, o'ziga xos badiiy bezak uslubi va tabiat elementlariga asoslangan ishqorli sir texnologiyasi bilan ajralib turadi. XIX asrning oxiridan XXI asr boshlarigacha bo'lgan davr Rishton kulolchiligi uchun murakkab tarixiy burilishlar, texnologik o'zgarishlar davri bo'ldi. Ushbu davrda markazdagi ishlab chiqarish jarayonlari va mahalliy ustalarning turmush tarzi nafaqat ilmiy nazariyalarda, balki bevosita joylarda to'plangan etnografik materiallar va tavsifiy manbalarda o'z aksini topgan.

Shu nuqtai nazardan, XIX asr oxiri - XXI asr boshlariga oid etnografik kuzatuvlar, dala yozuvlari va tavsifiy xarakterdagi materiallarni to'plash, ularni manbashunoslik nuqtai nazaridan tizimlashtirish hamda Rishton kulolchilik markazi tarixini tiklashdagi o'rnini qiyosiy tahlil qilish muhim ilmiy dolzarblik kasb etadi.

Tadqiqotning maqsadi – XIX asr oxiri - XXI asr boshlarida Rishton kulolchilik markazi bo'yicha to'plangan etnografik materiallar, dala yozuvlari va tavsifiy manbalarni har tomonlama tahlil qilish hamda ularning markaz tarixini, kulolchilik texnologiyalari va usta-kulollar faoliyatini yoritishdagi manbaaviy imkoniyatlarini ko'rsatib berishdan iborat.

XIX asrda rus olimlarining Markaziy Osiyo tarixi, etnografiyasiga qiziqishlari ortdi. Xususan, Farg'ona vodiysida ham qator ilmiy tadqiqotlar amalga oshirildi. Kulolchilik an'analarini o'rganishning birinchi bosqichi XIX asrda boshlangan bo'lsa-da, hudud kulolchiligi etnografik jihatdan deyarli yoritilmay kelindi. Bunga sabab, sobiq sovet mustabid tuzumi davrida hunarmandchilikning qadimiy an'analari, urf-odatlari eskilik sarqiti sifatida qoralanishidir. O'zbekiston kulolchilik sohasini o'rganishning ikkinchi bosqichi XX asrning 20–30-yillarida boshlandi va u, asosan, muzey eksponatlari uchun artefaktlar to'plash hamda ularni targ'ibot-tashviqot qilish ishlariga bag'ishlandi [12:4].

Dastlabki tadqiqotchilardan biri rus (ukrain) rassomi va etnografi V.K. Rozvadovskiy bo‘lib, u Markaziy Osiyoda yashovchi bir qator xalqlarning ijtimoiy hayoti va madaniyatini ilmiy kuzatishlar asosida yoritib berdi. Uning “Turkiston o‘lkasida kulolchilik va boshqa ayrim hunarmandchilik turlarini o‘rganish tajribasi” (“Опыть исследования гончарного и некоторых других кустарных промыслов в Туркестанском крае”) kitobida Markaziy Osiyo xalqlarining kundalik hayoti, dehqonchilik, hunarmandchilik kabi an’anaviy kasb-korlari hamda o‘ziga xos marosimlari haqida ma’lumot berilgan[8:43-44]. Rozvadovskiy Rishton kulolchilik markaziga yuqori e’tibor qaratib, boshqa kulolchilik maktablaridan farqli ravishda mazkur joy o‘zi uchun qiziq va ahamiyatli hudud bo‘lganligini ta’kidlab o‘tgan. Mazkur tadqiqotda keltirilgan ma’lumotlarning qimmatli jihati shundaki, unda kulolchilik ishlab chiqarish jarayonlari va texnologiyasi boshlanishidan yakunigacha batafsil tavsiflab berilgan. Shuningdek, muallif o‘z tadqiqotida mahalliy aholi tomonidan odatda e’tibor berilmaydigan jihatlarga ham alohida to‘xtalib, kulolchilik ustaxonalarining qurilishi, ichki tuzilishi, dizayni hamda ularda foydalaniladigan jihozlar va asbob-uskunalarni batafsil tasvirlab bergan. Tadqiqotda Rishton kulolchilik ustaxonalarining tuzilishi va jihozlanishi Markaziy Osiyoning boshqa kulolchilik markazlariga nisbatan ancha sifatli ekani ta’kidlangan.

“Turkiston to‘plami” da Farg‘ona vodiysida kulolchilik ishlab chiqarishining yetakchi markazi sifatida Rishton alohida o‘rin tutganligi ta’kidlangan. Manbada XX asr boshlarida Rishton hududida kulolchilik bilan shug‘ullanuvchi aholi soni haqida ma’lumot keltirilgan[5:26]. Lekin keyingi tadqiqotlar to‘plamdagi ma’lumotlarni to‘g‘ri emasligini ko‘rsatadi[2:44]. To‘plamda Rishton kulolchiligi mahsulotlarining nomenklaturasi (turlari) haqida ham muhim ma’lumotlar mavjud. Sopol buyumlar texnologik xususiyatlariga ko‘ra sirlangan va sirlanmagan turlarga ajratiladi; bu holat an’anaviy ishlab chiqarish jarayonlarining boy ekanligidan hamda mahsulot nomenklaturasining diversifikatsiyalashganidan (turlanganidan) dalolat beradi. Shuningdek, rishtonlik usta-kulollarning aksariyati yuksak badiiy mahoratga ega ekanligi, ularning nafaqat texnologik jarayonni, balki naqqoshlik (rangtasvir) san’atini ham mukammal egallaganliklari alohida qayd etilgan. Bu esa ishlab chiqarilgan mahsulotlarning estetik jihatdan yuqori darajada bezatilganini anglatadi. Rishton kulolchilik mahsulotlarining o‘ziga xos sifati va badiiy jozibasi tufayli ular nafaqat Farg‘ona vodiysida, balki o‘lkadan ancha uzoq bo‘lgan Yettisuv va Kaspiy orti mintaqalarida ham yuqori talabga ega bo‘lgan hamda keng eksport qilingan[2:26].

1925-yilda M.S. Andreyev rahbarligida etnograf Ye.M. Pesherova, fotograf Virvinskiylar ishtirokida Markaziy Osiyo kulolchiligi bo‘yicha ma’lumot yig‘ish uchun ekspeditsiya uyushtirildi. Ekspeditsiyaning asosiy e’tibori mahalliy kulolchilik namunalarini yig‘ishga qaratilgan. Etnograflar ekspeditsiya jarayonida har bir hudud kulolchilik an’analarini alohida-alohida tadqiq qildilar. Ekspeditsiya natijasida e’lon qilingan tadqiqotda XIX asr oxiri – XX asr birinchi yarmida kulolchilik sohasida faoliyat olib borgan rishtonlik usta-kulollar hamda ularning faoliyati haqida muhim ma’lumotlar berilgan[1:4-7].

1921–1961-yillardagi ekspeditsiyalarning asosiy maqsadi kulolchilik tarixi, rivojlanish davrlari, ijtimoiy holatga ta’siri kabi masalalarni o‘rganish bo‘ldi. Ushbu harakatlar natijasi sifatida masalaga oid “O‘rta Osiyo kulolchilik sanoati” (“Гончарное производство Средней Азии”) nomli fundamental asar yaratildi[7:395]. Mazkur asar Markaziy Osiyo kulolchiligi tadqiqoti bo‘yicha keyingi davrda olib borilayotgan tadqiqotlar uchun muhim poydevor bo‘lib xizmat qilmoqda. Kitob ikki qismdan iborat bo‘lib, birinchi qism Markaziy Osiyo hududlaridagi ayollar kulolchiligiga bag‘ishlangan. Ikkinchi qismida esa Qoratog‘, Panjikent, Samarqand, Toshkent, G‘ijduvon va Rishton kulolchiligining ishlab chiqarish texnikasi, buyumlarning tuzilish va shakllari, iqtisodiy maqsadlari, tarixi hamda kulolchilikdagi an’ana, urf-odat va marosimlar haqida ma’lumot berilgan[7:210-243]. Asarning qimmati shundaki, muallif tomonidan barcha jarayonlar batafsil tahlil qilingan.

Markaziy Osiyo hunarmandchiligini tadqiq etishda sohaga oid risolalar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ma’lumki, har bir hunarmandchilik turning o‘z risolasi mavjud bo‘lib, unda mazkur hunarning tarixi, an’analari, tartib-qoidalari hamda urf-odatlari haqida ma’lumotlar berilgan. Bugungi kunda ayrim hunar turlariga oid risolalarining asl nusxalari yetib kelmagan bo‘lsada, boshqa manbalar orqali uni o‘rganish imkoniyati mavjud[4:20]. Unda XIX-XX asrlarda risolalarga bo‘lgan munosabat va qarashlar, ularni o‘rganish masalalari, yo‘qolib borayotgan risolalarni to‘plash jarayonlari, mahalliy aholining risolalarga ishonchi va amal qilishning yo‘qolib

borish sabablari tahlil qilingan. Asardan hunarmandchilikning o‘ziga xos jihatlari, ustoz-shogird an’analari, qonun-qoidalari haqida muhim ma’lumotlar olish mumkin.

Kulolchilik tadqiq etilgan yetakchi adabiyotlardan biri M.K. Rahimovning “O‘zbekiston badiiy kulolchiligi” (“Художественная керамика Узбекистана”) kitobidir. Muallif asarida Rishton kulolchiligiga ham alohida urg‘u bergan[9:19-25]. Jumladan, Rishton kulolchilik buyumlarining turlari va shakllari, naqsh turlari, bezash usullari, kulolchilik tarixi xususida ma’lumotlar uchraydi. Uning ta’kidlashicha, Rishtonda ko‘plab tajribali kulollarning mavjudligi hamda mustahkam texnik va xom-ashyo bazasining shakllanganligi bu hududda badiiy keramika ishlab chiqarishini yanada muvaffaqiyatli rivojlantirish uchun qulay sharoit yaratadi. Rishtonlik ustalar an’anaviy kulolchilik buyumlarini tayyorlash bilan bir qatorda, O‘zbekistonning boshqa kulolchilik markazlarida faoliyat yuritayotgan yetuk ustalar va rassomlarning ilg‘or tajribalaridan ham muntazam ravishda foydalanadilar[9:25]. Shuningdek, Rishton ustalarining bezaklarida yuzlab naqshlar mavjudligi aytilgan.

Sovet davrida hudud kulolchilik tarixiga bag‘ishlangan keyingi tadqiqot “Rishton mo‘jizasi” asaridir[3:60]. Ahamiyatli jihati asar muallifining o‘zi rishtonlik bo‘lganligi bois jarayonlarning bevosita guvohidir. Kitob Rishton badiiy kulolchilik buyumlar zavodi faoliyatiga bag‘ishlangan bo‘lsa-da, masala tarixiga ham e’tibor qaratilgan. Shu bilan birga, kulolchilik an’alarining o‘ziga xos jihatlarini usta-kulollar bilan suhbatda bo‘lib, ularning tilidan yozib olgan. Tadqiqotda sovet davrida Rishtonda kulolchilik artellarining tashkil etilishidan boshlab to XX asrning 90-yillarigacha bo‘lgan davr mobaynidagi ma’lumotlar jamlangan.

Rishton kulolchiligi tarixshunosligiga oid tadqiqotlar keyingi davrlarda ham davom ettirilgan. Xususan, “Farg‘ona Rossiya imperiyasi hukmronligi davrida” monografiyasida[6:78]. Farg‘ona viloyati, xususan, Rishton kulolchilik markazining chorizm istilosi davridagi holati atroflicha yoritilib, kulolchilik hudud aholisi uchun tarixan shakllangan, azaliy va barqaror an’anaviy hunar turlaridan biri ekanligi qayd etilgan. Tadqiqotda 1884–1908-yillar oralig‘ida Farg‘ona viloyatida faoliyat yuritgan hunarmandchilik ustaxonalari, ulardagi ustalar soni hamda ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi statistik ma’lumotlar asosida tahlil qilingan. Shuningdek, keltirilgan maxsus jadvallar orqali hududda kulolchilik sanoatining chorak asrlik rivojlanish dinamikasi kuzatish imkoniyati mavjud bo‘lib, bu o‘sha davrdagi iqtisodiy o‘zgarishlarni xolis baholashga xizmat qiladi.

Rishton kulolchilik an’analarini o‘rganishda bugungi kungacha san’atshunoslar yaratgan manbalar yetakchilik qilmoqda. O‘zbekiston san’ati tarixini yaxlit tarixiy-badiiy jarayon sifatida o‘rganishga bag‘ishlangan tadqiqotlarda Rishton kulolchiligiga oid muhim ma’lumotlar ham yoritilgan. Xususan, “O‘zbekiston san’ati tarixi” kitbida an’anaviy kulolchilikning umumiy rivojlanish jarayonlari, 1950–1960-yillarda Farg‘ona ishqorli sirining yo‘qolishi hamda 1970-yillarda sirlash texnologiyasining qayta tiklanishi haqida ma’lumotlar berilgan. Shuningdek, Rishton kulollari mahsulotlari va ularning badiiy xususiyatlari tahlil qilingan[11:444-445].

“Farg‘onaning moviy sopoli” (“Голубая керамика Ферганы”) asarida XX asr Rishton kulolchiligiga oid tarixiy va san’atshunoslik ma’lumotlari keng yoritilgan[10:118]. Asarda Rishton kulolchiligining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari, ishlab chiqarish texnologiyalari, tabiiy bo‘yoqlar, naqsh turlari hamda kulolchilikka oid atama va ibohalar haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Markaziy Osiyo xalqlarining hunarmandchilik turlari va ularning tarixiy rivojlanish bosqichlari xalqaro miqyosdagi tadqiqotlar markazida ham o‘rganilmoqda. Tadqiqotlarda kulolchilik maktablari, ularning o‘ziga xos texnologik va badiiy xususiyatlari ilmiy jihatdan tahlil etilgan. Xususan, Rishton kulolchilik markaziga alohida e’tibor qaratilgan bo‘lib, uning boshqa lokal markazlardan farqli jihatlari, mahsulot tayyorlashda qo‘llaniladigan xomashyo tarkibi, o‘ziga xos ranglar gammasi hamda naqsh kompozitsiyalarining shakllanish jarayonlari yoritib berilgan[10:9].

Tadqiqot jarayonida manbashunoslik yondashuvi asosida yozma manbalar bilan bir qatorda og‘zaki tarix materiallari ham ahamiyatlidir. Xususan, kulolchilik ishlab chiqarishi bilan bevosita shug‘ullangan ustalar E. Rahmonov, I. Komilov, Yo‘. Polvonov hamda A. Nazirovlar bilan olib borilgan intervyu va suhbatlar natijasida yozma manbalarda aks etmagan qator muhim ma’lumotlar bilan muhim ma’lumot sifatida qaraladi[13]. Chunki, ustalar hunar bilan bog‘liq texnologik jarayonlar, an’analar va ularning avloddan-avlodga o‘tish mexanizmlarining bevosita tashuvchilari hisoblanadi. Og‘zaki manbalar, ayniqsa, yozma manbalarda yetarli darajada aks etmagan kulolchilikka oid amaliy tajribalar, mahalliy texnologiya, terminologiya hamda ustoz-shogird

an’analari haqida qimmatli ma’lumotlar beradi. Shuning uchun ustalar xotirasida saqlanib kelayotgan bilimlar tarixiy-etnografik tadqiqotlarda muhim manba sifatida baholanadi.

Xulosa

Rishton kulolchiligini o‘rganishga bag‘ishlangan manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, ushbu hunarmandchilik markazi Markaziy Osiyo, xususan, Farg‘ona vodiysi madaniy merosining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Etnografik, tarixiy va san’atshunoslik yo‘nalishidagi manbalar Rishton kulolchiligini qadimgi davrlardan boshlab uzluksiz rivojlangan an’ana sifatida yoritadi. Shuningdek, hunarmandchilikni nafaqat amaliy san’at namunasi, balki tarixiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jarayonlar bilan chambarchas bog‘liq murakkab hodisa sifatida talqin qilish imkonini beradi. Mavjud manbalar kelgusida Rishton kulolchilik markazining hududiy xususiyatlari, alohida ustalar ijodi hamda zamonaviy rivojlanish jarayonlarini chuqurroq tadqiq etish uchun mustahkam ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI.

1. Андреев М.С. К материалу по Средне-Азиатской керамике. – Ташкент, 1925. – 44 с.
2. Бурдуков Н.Ф. Гончарныя изделия Средней Азии. – Санкт-Петербург, 1904. – 80 с.
3. Бурхонов Х. Риштон мўъжизаси. – Тошкент: Ўзбекистон, 1983. – 60 б.
4. Гаврилов М. Рисоля сартовских ремесленников: исследование преданий мусульманских цехов. – Ташкент, 1912. – 38 с.
5. Головин Г. Гончарное производство // Туркестанский сборник. Т. 512. – С. 26-30.
6. Жабборов М.Р., Арслонзода Р.А. Farg‘ona Rossiya imperiyasi hukmronligi davrida (“Turkestanskiy sbornik” materiallari asosida). – Toshkent: Navro‘z, 2019. – 182 b.
7. Пещерева Е.М. Гончарное производство Средней Азии. – Москва: АН SSSR, 1959. – 395 с.
8. Розвадовский В.К. Опыт исследования гончарного и некоторых других кустарных промыслов в Туркестанском крае. – Ташкент, 1916. – 86 с.
9. Рахимов М.К. Художественная керамика Узбекистана. – Ташкент: Изд-во АН УзССР, 1961. – 244 с.
10. Хакимов А. Голубая керамика Ферганы. – Москва: Галарт, 2015. – 118 с.
11. Hakimov A. O‘zbekiston san’ati tarixi. Qadimgi davr, o‘rta asrlar, hozirgi zamon. – Toshkent, 2022. – 500 b
12. Xudaybergenov H. Xorazm kulolchiligi (Etnologik tadqiqot). – Toshkent: Lesson-press, 2023. – 160 b.
13. Yuldasheva M.M. Dala yozuvlari: Rishton kulolchilik markazi ustalari (E. Rahmonov, I. Komilov, Yo‘. Polvonov, A. Nazirov) bilan intervyular. – Rishton-Farg‘ona, 2024-2026. (Muallif shaxsiy arxivi).